

MAQOM IJROCHILIGINING TARAQQIYOT JARAYONI

Hakimov HusenBuxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası
12-1 vokal-20-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola maqom ijrochiligining shakllanishi va rivojlanish tarixi hamda musiqa merosi hamda an'analari haqida fikr yuritgan. Maqom va uni o'ziga hos xususiyatlari, xalqaro maqom anjumanlari, maqom markazi faoliyati haqida so'z boradi va shu bilan bir qatorda Yurtboshimizning maqom ichrochiligi to'g'risidagi qarori ham keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Maqom, Shashmaqom, ashula, xalq, janr, jonli ijro, Sharq, anjuman, ansambil, musiqa, san'at, qo'shiq.

Maqom so'zi eshitilishi tanish ammo asl ma'no mohiyati uning kelib chiqish tarixi hozirgi kunda uning roli yoki qanday ahamiyat kasb etishi noma'lum bo'lgan tushuncha. Xalqimiz buni tub mohiyatini anglab yetayaptimi yoki aksincha milliyligimizdan uzoqlashib borayaptimi? Xarhil rok pop jazz turli xil tushinib tushinmay eshitadigan ashulalardan uzimizning necha yillik tarixga ega milliy maqom ashulalarini eshitishimiz kerak emasmi? Shunday ekan maqom haqida so'z yuritamiz. Maqomlar Sharq musiqasiga xos bo'lgan turkumli san'at turidir. Ular asosan musulmon Sharqida keng tarqalgan bo'lib, turli mamlakatlarda har-xil nomlanadi. Jumladan, biz bilganimizdek o'zbek va tojiklarda maqom, uyg'urlarda muqom, Ozarbayjonda mug'om, arablarda va turklarda maqam, E'ronda Dastgoh, hindlarda raga kabi. Maqomlar, ya'ni turkumli musiqa janrining ildizi VII asrlarda yashab o'tgan Borbad Marvaziyga borib taqaladi degan ilmiy farazlar mavjud.

Maqom (arab. — joy, makon, o'rin) — musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab mu-ayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholg'uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma'nosida ishlatilgan. Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida M.ning mazmun doirasi tobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog'liq boshqa ma'nolarni ham anglata boshladi. Tahminan IX asrlardan shakl ola boshlagan maqomlar butun Sharq davlatlari bo'ylab Duvozdaxmaqom, ya'ni, o'n ikki maqom tizimi shaklida nomlandi va rivojlanadi. O'n ikki maqom tizimi haqida ilmiy-tarixiy risolalarda bir qancha ma'lumotlar bitilgan bo'lib, ularning ma'lum bir qismi bizgacha yetib keldi. Lekin, musiqasi yetib kelmadi. Zamonaviy maqomshunoslik fani asoschisi, san'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq Rajabovning ilmiy tadqiqotlaridan bizga ma'lum bo'lishicha Shashmaqom Duvozdaxmaqomdan kelib chiqqan ekan. Maqomshunos alloma I.Rajabov ta'kidlaganidek Shashmaqom XVIII asr o'rtalariga kelib uzil-kesil shakllangan. I Shashmaqom o'zbek va tojik xalqining bebaho xazinasi bo'lib, ikki xalqning beqiyos musiqiy durdonasidir. Uning vatani Buxoro bo'lib, asosan amir saroyida ijro etilgan. Bundan tashqari O'zbekistonda Xorazm maqomlari turkumi ham bor. U o'z nomi bilan Xorazmda mashxur va keng tarqalgan. Xorazm maqomlari ham Shashmaqom kabi ikki bo'limdan iborat. Faqat ularning nomida farq bor. Demak, Cholg'u bo'limi – Manzum, Ashula bo'limi – Mansur deb ataladi. Vodiy tomonlarda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari keng tarqalgan bo'lib, ular o'ziga xosligi bilan, yengil xalqchilligi bilan ajralib turadi. Undagi yirik ashula turkumlari Bayot I-V, Chorgoh I-V, Gulyor-Shahnoz, Dugoh-Husayniy I-VII lar hisoblanadi. Maqom – ilohiy san'at. Uni ijro qilish uchun ilohiy qobilyat talab etiladi. Ota-bobolarimiz ushbu beqiyos san'atga

chuqur hurmat ila qaraganlar. XVIII-XIX asrlarda bugungi O'zbekiston hududida joylashgan amirlik va xonliklarda maqomlarni buzib ijro etish mumkin bo'lmagan. Aks holda ijrochi qattiq jazolangan. Shuning o'zginasi maqomlarning qadr-qimmatiga ko'rsatilgan cheksiz hurmatdir balki. Maqomlar ustozdan-shogirdga og'zaki tarzda o'tib bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ularni nota yozuviga tushirish ishlari ham XIX asr oxirlarida Komil Xorazmiy tomonidan ixtiro etilgan "Xorazm tanbur chizig'i" yordamida Xorazm maqomlarini notaga olishdan boshlandi. Tojikistonda Boboqul Fayzullayev, Shohnazar Sohibov va Fazliddin Shahobovlar yozuvida, Viktor Mixaylovich Belyayev tahririda 1950-yildan boshlab Moskvada nashrdan chiqarildi. Notalashtirishdagi navbatdagi ishlarda buyuk bastakor, sozanda, hofiz, akademik Yunus Rajabiy hayratomus natijalarga erishdi. Yunus Rajabiy notalashtirgan ishlari "O'zbek xalq muzikasi"ning 5-jildi "Buxoro maqomlari" nomi ostida, Ilyos Akbarov tahririda 1959-yilda chop etildi. 1966-yilda Toshkentda Shashmaqom 6 ta tomlik kitobi Fayzulla Karomatov tahririda Yunus Rajabiy yozuvida chop etiladi. Ushbu kitoblarning nashrdan chiqishi uchun ancha mehnat va mashaqqat talab etilgani tabiiy. Shu kungacha amalga oshirilgan ishlarni davom ettirish bizning bugungi burch va vazifamiz. Yangi nota kitoblarini qayta ishlab chiqarish kerak. Ushbu muammoni hal qilish ham oldindagi vazifalardan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda juda ko'p sohalarda o'zgarishlar va yangiliklar bo'ldi. Milliy mumtoz musiqamiz qayta tiklandi. Musiqaga qaratilayotgan e'tiborlar oshgandan oshmoqda. Musiqa maktablarining moddiy ba'zasini modernizatsiyalashtirish va musiqa asboblari bilan ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Shashmaqom YUNESKONing "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi" deb tan olinishi Shashmaqom rivojlanishiga turtki bo'ldi. 2017-yilda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek milliy maqom san'atini rivojlantirishga oid chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unga ko'ra "O'zbek milliy maqom san'ati markazi" tashkil qilindi. Har bir viloyatda maqom ansambllari tashkil etildi. Dastlab, O'zbekiston davlat konservatoriyasida "O'zbek maqomi san'ati" nomli fakultet tashkil etildi. Uning ijrochiligi bilan bir qatorda tarixi va nazariyasi ham e'tibordan qolmadi. Buning isboti sifatida "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasini tashkil etilganligini keltirish mumkin. Har ikki yilda Shahrisabz shahrida Xalqaro Maqom anjumani bo'lib o'tadigan bo'ldi va uning tarkibida ijrochilik tanlovlaridan tashqari ilmiy-amaliy konferensiya ish yurita boshladi. 2021 yil sentabr oyidan boshlab Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti o'z faoliyatini boshladi. So'ngi yillardagi o'zgarish va yangilanishlar musiqada xususan, maqomlarda ham o'z aksini topmoqda. O'ylaymizku bizning o'zbek milliy maqomlarimiz jahon miqyosida shahdam qadamlar bilan o'zni butun dunyoga tanitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339

5. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 88-91.
6. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.
7. Ramazanova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.
8. Ramazanova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.
9. ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУКЕ ОБ ОСНОВАХ ТЕХНИКИ ПЕНИЯ. Угилой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова. 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том1Номер 6 Страницы 94-96
10. ВНЕДРЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОЗНАНИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. Угилой Холмуродовна Рамазанова, Малика Курбановна Нематова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том 1 Номер 6 Страницы 97-99
11. Behruz Boltayev Hamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia Science Repository*, 4(04), 1063–1066. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90>
12. Behruz Boltayev Hamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 102–104. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414>
13. Boltayev B. H. The content and methodology of the process of establishing the voice of students in singing //МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-188.
14. Boltayev B. H. Buxoroshashmaqomidoyrausullari ijrolaritalqini //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-74.
15. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.
16. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.
17. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.
18. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.
19. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.

20. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatini Tutgan O'Rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>
21. [Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку](#). УХ Рамазонова - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023
22. [O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA SHASHMAQOMNING O'RNI VA AHAMIYATI](#) O Farangiz - TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY ..., 2022
23. [Важность использования инновационных технологий в науке об основах техники пения](#). Угиллой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science 1 694-96
24. [Внедрение и применение инновационных технологий в сознании студентов в образовательном процессе](#). УХ Рамазанова, МК Нематова - International conference on multidisciplinary science, 2023
25. [Преподавание ответвлений шашмакома на уроках традиционного пения как педагогическая проблема](#). УХ Рамазанова, МД Эсанова - International conference on multidisciplinary science, 2023
26. Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklor-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).
27. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
28. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
29. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
30. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ //ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.
31. Hamitova S. B., Gulzira N. AN'ANAVIY XONANDALIKNI O 'QITISHNING DOLZARB MASALALARI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 114-117.
32. Qo'chqorova U. D., Hamitova S. B. MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ORNI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 105-109.
33. Hamitova S. B. AN'ANAVIY XONANDALIK VA UNING RIVOJLANISH TARIXI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.
34. Hamitova S. B., Fayzullayeva S. B. AN'ANAVIY XONANDALIKNI O 'QITISHNING DOLZARB MASALALARI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 178-182.